



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING ENSIKLOPEDIK LUG‘ATLARDA IZOHLANISHI

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, katta o‘qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqola rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning ingliz va o‘zbek tillarida rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning ensiklopedik lug‘atlarda izohlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ingliz tilidagi va o‘zbek tilidagi ensiklopedik lug‘atlar tanlab olinib, ularda rieltorlik sohasiga oid terminlarning izohlanishidagi o‘xshash va farqli jixatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: rieltor, ensiklopedik lug‘at, terminografiya, leksikografiya, termin, terminologik lug‘at, ko‘chmas mulk, ijara, lingvistik lug‘at, lug‘at yozuvi.

ТОЛКОВАНИЕ ТЕРМИНОВ РИЕЛТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЭНЦИКЛОПЕДИЧЕСКИХ СЛОВАРЯХ

Эгамназарова Зайнаб Холмурод кизи

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, старший преподаватель (PhD)

Аннотация

В настоящей статье рассматриваются особенности интерпретации терминов риелторской деятельности в энциклопедических словарях английского и узбекского языков. В процессе исследования были отобраны и проанализированы энциклопедические словари обоих языков, что позволило выявить общие и специфические особенности представления и толкования терминов, функционирующих в сфере риелторской деятельности. Особое внимание уделяется сравнительному анализу лексикографической репрезентации терминологических единиц, отражающих понятийную систему рынка недвижимости.

Ключевые слова: риелтор, энциклопедический словарь, терминография, лексикография, термин, терминологический словарь, недвижимость, аренда, лингвистический словарь, словарная статья.

INTERPRETATION OF REAL ESTATE TERMINOLOGY IN ENCYCLOPEDIC DICTIONARIES

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Senior Lecturer (PhD)

Abstract

This article analyzes the interpretation of real estate terminology in encyclopedic dictionaries in both English and Uzbek. The study examines selected English and Uzbek encyclopedic dictionaries and investigates the similarities and differences in the presentation and definition of terms related to the real estate sector. Particular attention is paid to the lexicographic and terminographic representation of real estate terminology, revealing the specific features of its description in the encyclopedic dictionaries of the two languages.

Keywords: realtor, encyclopedic dictionary, terminography, lexicography, term, terminological dictionary, real estate, lease, linguistic dictionary, dictionary entry.

Ma'lumki, lug‘atlarning tavsifiga qarab, ular ensiklopedik va lingvistik lug‘at turlariga bo‘linadi. Ensiklopedik lug‘atlar narsa va hodisalar haqidagi tushunchalarning ko‘lami va mazmunini ochib beradi. Lingvistik lug‘atlar esa so‘zlarni tavsiflaydi. So‘zlarning ma‘nosi ikki yo‘l bilan ochiladi: talqin qilinayotgan so‘z bilan bir xil til orqali yoki boshqa til orqali.

An'anaga ko‘ra, terminolog va terminograflarning sa'y-harakatlari terminlar va terminologik tizimlarning mazmunini ochib berishga mo'ljallangan izohli lug‘atlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu ko‘plab terminologik lug‘atlar va standartlarni tuzishda o‘z ifodasini topdi. Shu munosabat bilan filologik terminologik lug‘atni maxsus ensiklopediyaga qarama-qarshi qo‘yishning qandaydir nisbiyligini ta'minlash zarur hisoblanadi. Maxsus tarmoq ensiklopediyasining yirik terminologik izohli lug‘atdan farqi, birinchi navbatda, terminologik lug‘at tushunchaning batafsil tavsifini berishga majbur emas, faqat

qisqacha talqin, tushuntirish va ta'rif beradi. Ikkinchidan, terminologik lug'atning o'zi lug'at janri bilan belgilanadigan katta moslashuvchanligi va dinamikligi bilan ajralib turadi. Unda fe'llar, sifatlar, kasbiy so'zlashuv iborolari, sinonimlar, antonimlar va belgilar bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda aralash turdagi lug'atlar paydo bo'lmoqda. Nazariy va amaliy leksikografiya rivojlanishining hozirgi bosqichida lingvistik va ensiklopedik lug'atlarga xos xususiyatlar mujassamlashmoqda. Mavjud maxsus izohli lug'atlar va ensiklopediyalarning barcha afzalliklariga qaramay, ular baribir ma'lum kategorik doiralar bilan cheklangan. Izohli lug'atlarda mavzu asosi to'liq aks ettirilmaydi, ensiklopediyalarda esa asl belgining ayrim xususiyatlari aniq yoritilmaydi va hokazo. Birlashtirilgan izohli-ensiklopedik lug'at so'zlarning leksik ma'nolari xususiyatlarini aniq voqelikni tavsiflash tamoyillari bilan birlashtirishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Izohli-ensiklopedik lug'atlarning paydo bo'lishi bir necha sabablarga ko'ra to'liq ma'qullanadi: bir tomondan, globallashuv va madaniyatlarining aralashuvi, boshqa tomondan esa foydalanuvchilarning nafaqat ingliz tili, balki zamonaviy jamiyat va dunyo hayotiga oid universal ma'lumotnomani olish istagi bilan bog'liq.

Leksikografik amaliyotda ko'plab ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda yaqinda paydo bo'lgan birlashtirilgan izohli-ensiklopedik lug'atlarning ko'plab misollari mavjud. Ushbu maqtovg'a sazovor ma'lumotnomalar orasida Collins tomonidan nashr etilgan lug'atlar mavjud.

Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya muammolari va ularning turli jabhalariga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ingliz va jahon tilshunoslari O.D. Adonina, O.O. Ageeva, M. Nelson, E.G. Kaytukova, Z. Mirzoyev, R.W. Wines, H. Sonnaveld kabi olimlarning tadqiqotlari bu sohada muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi [1,2].

O'zbek tilshunosligida ham ushbu muammoga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A. Xojiyev, H. Dadaboyev, A. Madvaliyev, X.A. Sarimsokov, G.I. Ergasheva, Y.T. Shirinova, D.X. Kadirbekovalarning ilmiy ishlari mazkur sohada muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda tavsifiy, chog'ishtirma va distributiv metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning nazariy asoslari yoritib berilgan. Chog'ishtirma metod orqali esa ingliz va o'zbek tillaridagi rieltorlik faoliyatiga oid terminlarning ensiklopedik lug'atlarda izohlanishi qiyosiy tahlil qilingan. Distributiv tahlil orqali rieltorlik terminlarining ensiklopedik lug'atlardagi va iqtisodiy lug'atlardagi o'rni ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Izohlovchi-ensiklopedik lug'atlar ham differensial, ham to'liq nashrlarda taqdim etilishi mumkin. Rieltorlik bilimlari sohasida rieltorlik terminologiyasini batafsil o'rganish uchun eng ishonchli manba rieltorlik ensiklopediyasi hisoblanadi.

Ensiklopediya 2007-yilda nashr etilgan. Ushbu leksikografik ish iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Ushbu iqtisodiy ensiklopediya ma'lumotnoma oxirida iqtisodiy terminlarning ma'nosini tushuntiruvchi keng lug'atni o'z ichiga oladi. Kirish birliklarida alifbo tartibidan oldin raqamlar joylashtirilgan:

80–10–10 mortgage A type of mortgage arrangement with 80 percent of the purchase price paid by a first mortgage, 10 percent paid by a second mortgage, and the final 10 percent in down payment; sometimes used in order to avoid having a 90 percent first mortgage and the required private mortgage insurance premiums. (Sotib olish narxining 80 foizini tashkil etadigan ipoteka shartnomasining bir turi birinchi ipoteka bo'yicha to'lanadi, 10 foizi ikkinchi ipoteka tomonidan to'lanadi va oxirgi 10 foizi boshlang'ich to'lov hisoblanadi; ba'zan 90 foizlik birinchi ipotekaga ega bo'lmaslik va zarur xususiypoteka sug'urta mukofotlarini to'lamaslik uchun ishlatiladi [3].

1031 exchange (pronounced "ten thirty-one exchange") From Section 1031 of the Internal Revenue Code, the ability to exchange like-kind property and defer paying taxes on the gain realized. Under normal circumstances, if a party purchases Blackacre for \$10,000 and then exchanges it for \$100,000 in cash, there is a gain of \$90,000 on which income taxes must be paid. But, because of §1031, if Blackacre is exchanged for like-kind property, then the gain is realized (meaning it occurs) but is not recognized (meaning no tax is due at that time).

1031 almashish ("o'n o'ttiz bir almashinuv" deb o'qiladi) Ichki daromad kodeksining 1031-bo'limidan kelib chiqqan bo'lib, o'xshash mulkni ayirboshlash va olingan daromad bo'yicha soliqlarni to'lashni kechiktirish imkoniyatini beradi. Oddiy sharoitlarda, agar bir tomon Blackacre'ni 10 000 dollarga

sotib olib, keyin uni 100 000 dollarga naqd pulga almashtirsa, 90 000 dollar miqdoridagi daromad uchun daromad solig'i to'lanishi kerak bo'ladi. Lekin §1031 ga ko'ra, agar Blackacre o'xshash mulkka almashtirilsa, daromad amalga oshiriladi (ya'ni yuzaga keladi), biroq tan olinmaydi (ya'ni o'sha paytda soliq to'lanmaydi).

Raqamlarda asosan qonun va kredit buyruqlarining raqamlari keltirilgan va ushbu raqamli terminlardan so'ng alifbo tartibida rieltorlik faoliyatiga oid terminlar keltirilgan:

AAA tenant (pronounced "triple-A tenant" but written as AAA tenant) Commercial tenant with the best possible credit rating and the least likely possibility of default. Owners can secure better selling prices or better financing terms if they have such tenants in their property. ("Uchtalik A ijarachi" deb talaffuz qilinadi, lekin AAA tenant shaklida yoziladi). Eng yaxshi kredit reytingiga ega va defolt ehtimoli eng kam bo'lgan tijorat ijarachisi. Egalari o'z mulkida shunday ijarachilarga ega bo'lsa, yaxshiroq sotish narxini yoki qulayroq moliyalashtirish shartlarini ta'minlashi mumkin;

bachelor apartment A small rental dwelling unit that combines living and bedroom spaces into one room (and, sometimes, kitchen space as well). Do not confuse with single-room occupancy, which generally has shared cooking or bathroom facilities. (Yashash va yotoqxona hududlarini bir xonaga, ba'zan esa oshxona maydoni bilan birlashtirgan kichik ijaraviy turar joy. Odatda umumiy oshxona yoki hammomga ega bo'lgan bir xonali turar joy bilan adashtirmang);

cadastral (1) A legal map for recording ownership of the various parcels of land within a jurisdiction. (2) The United States Cadastral System program within the U.S. Department of the Interior Bureau of Land Management, responsible for surveying and related activities. (For more information go to the Bureau's Web site at www.blm.gov). (Turli yer uchastkalariga egalik huquqini qayd etish uchun mo'ljallangan huquqiy xarita. (2) AQSh Ichki ishlar departamentining Yer boshqaruvi byurosi tarkibidagi Amerika Qo'shma Shtatlari kadastr tizimi dasturi bo'lib, tadqiqot va tegishli faoliyat uchun mas'uldir. (Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Byuroning www.blm.gov veb-saytiga tashrif buyuring) [4].

Yuqorida tahlilga tortilgan terminlarning ta'rifini ensiklopedik lug'atlardan olingan bo'lib, bitta terminning termin sifatidagi ta'rifidan tashqari oddiy lug'aviy ma'nosi ham ochib berilgan. Izohli va terminologik lug'atlardan farqli ravishda kengroq tushuntirilgan. Masalan, cadastral terminiga qaraydigan bo'lsak, terminning ikki xil ma'nosidan tashqari qo'shimcha veb-sayt ham ko'rsatilgan yoki "AAA ijarachi" terminini oladigan bo'lsak, bunda terminning talaffuz qoidasi, izohi va undan keyin kengaytirilgan tushuntirish berilgan. Odatda izohli lug'atlar faqat qisqa izoh bilan cheklanadi.

Ensiklopediya va lug'at o'rtasidagi asosiy farq materialni tanlash tamoyillarida bo'lib, ensiklopediya mualliflari haqli ravishda tizimli xarakter berishga harakat qilishgan. Rieltorlik ensiklopediyasida ko'chmas mulk savdosi va ijarasi haqida muhim, keng qamrovli ma'lumotlar mavjud. Foydalanuvchilar doirasini kengaytirish maqsadida ensiklopedik lug'at mualliflari ko'chmas mulk haqida turli xil ma'lumotlarni taqdim etadilar, xususan:

home equity conversion mortgage (HECM) An FHA-insured reverse mortgage loan allowing persons to borrow money against the equity in their home with no repayment usually necessary until after death. The money may be taken in one lump sum, or in payments over time. (FHA tomonidan sug'urtalangan teskari ipoteka krediti bo'lib, bu odamlarga o'z uylaridagi kapital evaziga, odatda o'limdan keyingacha qaytarish talab qilinmaydigan qarz olish imkonini beradi. Pul bir martalik yoki vaqt o'tishi bilan to'lov shaklida olinishi mumkin) [5].

The important elements are

- The borrower and any other current owners of the home must be aged 62 or over and live in the home as their principal residence.
- The home must be a single-family residence in a one- to four-unit building, a condominium, or part of a planned unit development (PUD). Some manufactured housing is eligible, but cooperative apartments are not.
- The home must be at least 1 year old and must meet HUD minimum standards, except that the HECM can be used to make necessary repairs.
- Applicants must discuss the program with a HUD-approved counselor before making any decision.
- Repayment in full is due (1) when the last surviving borrower dies, (2) when the home is sold, (3) when the borrowers permanently move elsewhere or fail to live in the home for 12 months, or (4) if there is a default in mortgage terms, such as failing to pay property taxes or keep the property insured or allowing it to deteriorate below HUD minimum standards.

Yuqorida keltirilgan misolga qaraydigan bo'lsak, ensiklopedik lug'atlarda keltirilgan ma'lumotlar maxsus terminologik lug'atlarga nisbatan juda keng va batafsil berilgan, chunki ensiklopedik lug'atlardagi ma'lumotlar bitta emas, bir nechta kitoblardan yig'iladi. Shu sababli qamrov doirasi boshqa barcha lug'atlarga qaraganda kengroq hisoblanadi.

Ko'chmas mulk dunyosi terminlari bir qator sabablarga ko'ra o'zgaruvchan bo'lib, ko'chmas mulk agentlari har kuni uy sotib olish va sotish jarayoni bilan shug'ullansa-da, oddiy odam hamma so'z va terminlarda adashib qolishi mumkin va bu savdo jarayonida rieltorlar ishlatadigan jargon so'zlar ham chetda qolmaydi, shu sababli ushbu izohli-ensiklopedik lug'atda rieltorlik faoliyatiga oid batafsil jargon so'zlar bo'limi mavjud.

Fisbo: This is a term used to describe a For Sale By Owner (FSBO) who is also a first-time home seller.

EM: Another common term you may come across in the real estate world is "earnest money receipt." This refers to a document that outlines the amount of money a buyer has paid as a deposit or "good faith" payment when making an offer on a property [1].

BinsEr: This is short for "Buyer Inspection sellers response form." It refers to a buyer hiring a professional inspector to examine a property before purchasing it. And the form to respond to the inspection is the BINSer.

BPO: "Broker Price Opinion" is an estimate of a property's value performed by a licensed real estate agent. It is typically used by banks and mortgage companies when evaluating a property for foreclosure or short sale.

CMA: "Comparative Market Analysis" is a report that compares the selling prices of similar properties in the same area to help determine a fair market value for a property.

Rieltorlik faoliyatiga oid so'zlashuvda foydalaniladigan jargon terminlar ham lug'atga kiritilgan bo'lib,

investor one who uses his or her money to purchase property in the expectation of earning periodic cash flows from the property, making a profit on the eventual resale of the property, or both;

interest in property the extent of ownership in property;

home inspection usually a professional, third-party inspection of a home prior to purchase in order to discover defects and report them to the purchaser.

Denise L. Evans, JD, O. William Evans, JD. The Complete Real Estate Encyclopedia. Uchinchi nashr. McGraw-Hill, Nyu-York, 2007-yil lug'ati ham boshqa ensiklopedik lug'atlar kabi so'zning izohlanishi va qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Biroq u ham yangi xususiyatlarga ega. Mualliflar uni rieltorlik sohasi terminologiyasi bo'yicha so'nggi tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldirishdi. Leksikografik ko'chmas mulk savdosi jarayoniga u yoki bu tarzda bog'liq bo'lgan grafik tasviriy materiallar, fotosuratlar, turli diagrammalar va sxemalar paydo bo'ladi. Ushbu uslub zamonaviy leksikografiyada terminologik lug'atlarni yaratishda tobora ko'proq foydalanilmoqda. Mutaxassislarining so'rovlari natijalariga ko'ra, iqtisodiy fanlar jarayonlari va apparatlarining mohiyatini yaxshiroq tushunishga imkon beradigan grafik tasvirlar, ko'pincha illyustrativ materiallar lug'at yozuvlariga hamroh bo'ladi [2].

Lug'at muallifining asosiy yutug'i etimologik ma'lumotlar, shu jumladan, onomaseologik ma'lumotlarni ham lug'atda keltirib o'tilganligidir. Bizningcha, izohli-ensiklopedik lug'atning asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular leksik tizimning til va madaniyat muammolari kesishgan qismini ifodalaydi. Ensiklopediyada onomaseologik materialning tushuntirish ensiklopedik tavsifi berilgan. Shu bilan birga, rieltorlik sohasining rivojlanishiga hissa qo'shgan tarixiy vaziyat va shartlarni tavsiflash muhim va foydalidir.

O'zbek tilida Sh. Bahronov, O. Madvaliyev Yoshlar uchun yuridik ensiklopediya. – Toshkent: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2021-yil. – 208 b. ensiklopediyasida so'zlarga ta'rif har tarflama keng qilib, hamma sohani qamrab olgan holda izohlangan, masalan,

Mulk huquqi

Shaxsning o'ziga yarasha mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf etishi huquqidir. Shaxs o'zining mulk huquqi har qanday shaklda buzilishini bartaraf etishni talab qilish huquqi ham shu jumlagi kiradi. Mulk huquqi muddatsizdir.

Mulk huquqi daxlsizdir va qonun bilan qo'riqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko'ra, voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari, ya'ni kiyim-kechak, poyabzal, ishlab chiqarish qurollari, o'quv anjomlari va

boshqalar ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Bolaning shaxsiy foydalanishida bo'lgan, bola tomonidan hadya, meros tariqasida olingan buyumlar, mol-mulk uning xususiy mulkidir [3].

Ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas. O'z navbatida, ota-ona ham voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas. Ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki bo'lishi mumkin va birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo'ladi.

Yer, yerosti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan, binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xomashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek, intellektual mulk obyektlari mulk bo'lishi mumkin. (Sh. Bahronov, O. Madvaliyev Yoshlar uchun yuridik ensiklopediya).

Endi ushbu terminni biz Sh. Mustafakulov va boshqalar, Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 489 b. lug'atida berilishini ko'rib chiqamiz.

Mulkiy huquqlar

Agarda firmani barpo qilish uchun ko'pchilik mulkdorlarning mablag'laridan foydalaniladigan bo'lsa, bunday korxonalar korporatsiya deb ataladi. (Sh. Mustafakulov va boshqalar, Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati).

Shunday qilib, biz dastlabki lug'atlarda topiladigan rieltorlik ensiklopediyasi hajmi, taqdimoti va materialni tahlil qilish usuli bilan farqlanadi. U qo'shimcha materiallarni taqdim etadi, ularsiz umuman terminologiya va xususan, rieltorlik sohasi bo'yicha tizimli bilimlarni olish mumkin emas. Keling, aniq ma'lumot beruvchi ensiklopediya lug'at yozuvining bir qismini tahlil qilaylik:

brownstone

A row house built of reddish-brown sandstone; usually refers to one built in the nineteenth century, in a large city, with a narrow profile facing the street.

client

The person to whom an agent owes duties of integrity, confidentiality, loyalty, and hard work. Contrast with customer, who is owed the duty of honesty.

debtor

(1) One who owes a debt. (2) In bankruptcy, the person who requests protection under the bankruptcy laws [4].

Ma'lumot batafsil ensiklopedik talqin shaklida taqdim etilgan ensiklopediyadan farqli o'laroq, yuqoridagi ma'lumotnomaning lug'at yozuvida ishlov berish jarayonlari haqidagi ma'lumotlar aniq va ixcham tarzda keltirilgan.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ensiklopedik lug'atlarda rieltorlik faoliyatiga oid terminlar terminologik lug'atlarga qaraganda kengroq izohlanadi, chunki ensiklopedik lug'atlarda terminning barcha xususiyatlari qamrab olinadi. Yuqoridagi ikkita lug'atdan olingan misollarni taqqoslaydigan bo'lsak, ensiklopedik lug'atda ma'lumotlar qamrovi keng qilib berilgan va barcha soha yoki barcha yosh vakillari uchun ma'lumot kiritilgan, biroq terminologik lug'atda faqat o'sha soha vakili uchun aniq, qisqa va lo'nda ma'lumot keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Evans D.L., Evans O.W. The Complete Real Estate Encyclopedia. 3rd ed. — New York: McGraw-Hill, 2007.
2. Karpova O., Kartashkova F. Essays on Lexicon, Lexicography, Terminography in Russian, American and Other Cultures. — Cambridge, 2007. — P. 67.
3. Bahronov Sh., Madvaliyev O. Yoshlar uchun yuridik ensiklopediya. — Toshkent: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2021. — 208 b.
4. Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв. — Ташкент: Ёзувчи, 1991. — 186 с.
5. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. — 384 b.
6. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. — Toshkent: Fan, 1996.